

Ular kimyo mutaxassislarimi?

8-sinf "Kimyo" darsligida (T., 2019-y, 83-bet) kimyoning qadrli va kerakli "Elektron balans tenglama" atamasi qo'pol tarzda "sxema", "xususiy sxema" deyilgan. Mavzu qoniqarsiz tushuntirilgan.

2-bet

Maqola chiqargan o'qituvchining ish tajribasi ommalashgan hisoblanadimi?

2020-2021-o'quv yili ham yakunlandi. Endi ko'pchilik o'qituvchilarga 2021-2022-o'quv yilida qo'shimcha ustasha berish uchun kerakli hujjatlar ko'zdan kechirilib, pedagog xodimlar faoliyatini mablag'ishchi guruhi tomonidan baholanadi.

5-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 2-iyun, chorshanba № 22 (9347)

Xalq ziyorilari gazetasи



SHU DAVRGA QADAR O'TKAZIB KELINAYOTGAN ATTESTATSIYA JARAYONLARIDA ASOSIY ETIBOR UCHINCHI YO'NALISHDAGI "O'QUV FANI BO'YICHA MALAKA SINOVLARI"GA QARATILIB, TEST SINOVLARIDA ERISHILGAN NATIJALAR MALAKA TOIFASINI BERISH UCHUN ASOS BO'LIP KELMOQDA;

⇒ O'QITUVCHILAR MEHNATIGA BAHO BERISHDA VAZILAR MAHKAMASINING TEGISHLI QARORI VA UNING IJROSIDA OBYEKТИV YONDASHUV YO'Q;

⇒ AMALDAGI "BAHOLASH MEZONLARI"DA O'QITUVCHI FAOLIYATIGA BAHO BERISHDA ANCHAGINA QATTIQ TALABLAR QO'YILGANLIGI UCHUN, KO'PCHILIK O'QITUVCHILAR HATTO 50 BALL TO'PLASHI HAM MUAMMO.

3-bet

1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

Bolajon!


Kelaqol, dunyoni gir aylantiril,
Meni bog'lab qo'yib pokiza dilga.
Bolajon, kulgin sen, bugun bayram qil,
Oppoq orzularing o'xshaydi nurga!

Borlig'imga ko'chgan tuyg'ularing ko'p,
Talpinasan mehr bergenim sayin.
Har imo-ishorang takrori yo'q, xo'p,
Kulgichlaring esa shirindir, mayin.

Bolajon, sen jannat farishtasigan,
Yurgin, sayohatlar qilamiz dilga.
Ertaklar aytasan, qo'shiq aytasan,
Orzularing go'yo o'xshaydi nurga!

Shu nurga yetkazsin barchani tangrim,
Orzular otiga yo'l solgin, qo'zim!
Otajon, onajon degan tilingni,
Yolg'on saroblardan asrasin O'zi!

Madina BAXSHILLOYEVA,
Romitan tumanidagi 23-IDUMning
ijodiy-madaniy masalalar
bo'yicha targ'ibotchisi



Yangisoydan bir hovuch

O'zimdan so'rasangiz, Yangisoydan bo'lamon. Eshitmagan ekanman, deysizmi? Qaydan ham eshitardingiz qishloqning nomini yaqindagina o'zgartirgan bo'sak. Yangisoy bu — o'zimizning Ko'na qishloq-da.

4-bet



Bir necha yildan buyon maktablarimiz tabaqlanib bormoqda. Ya'ni markazga yaqin, moddiy bazasi baquvvat maktablarga ota-onalar pora berib bo'lsa da bolasini o'qishga kiritadi. Agar rus guruhi bo'lsa, berdi Xudo. Ammo chekka qishloqlardagi maktablar haqida bunday deb bo'lmaydi. Bolaning qo'lidan ish kelib qoldimi, tamom, dehqonchilik, chorva, mardikorlik qilishga undaladi. Qani, ota-onaning yoniga borib bolani maktabga qaytar deb ko'ring, gapingizga pushaymon bo'lasiz. Afsus, qonuniy hech nima qilolmaymiz.

Karimjon ERGASHEV

⇒ "O'qituvchi maqomi" degan qonunga muhtojmiz. Jamiyatimizning o'zi bunday qonunga ehtiyoj yuqoriligini ko'sratmoqda. Bu borada ko'p gapiridi. Vaqt esa o'tib ketmoqda, afsuski, o'qituvchilar kaltaklanmoqda. Maktablarda muallimga munosabati ko'rib turibmiz. Davlatga ta'limdan keladigan foyda o'quchchi maktabni tamomlaganidan keyin 10 yillarda o'tgach bilinadi. Demak, 28-30 yosh ayni ishlab charcharmaydigan, yangiliklar yaratadigan davr. Bu esa davlat uchun uzoq muddat. Boshqa kasblardan, xususan, tadbirkorlikdan keladigan foyda uzog'i bilan 3 yilda bilinadi. Shuning uchun ham ta'limga investitsiya kiritish ming o'ylanadi, xomcho't qilinadi. Vaqt esa o'tib ketaveradi.

Erkinjon YARASHEV

Yaqinda imtihonda 3 nafar 10-sinf o'quchisiga "2" baho qo'ydim. Eng qizig'i, faqat men bunga jur'at qildim. O'quchilar "Baribir bahomizni qo'yib beradi", deb o'laydi. Ular bir kunlik konsultatsiyaga ham bo'yndan sudragudek bo'lib keladi. Yashirmayman, telegramdagi guruhga imthon javoblarigacha tashladim. O'qib kelsa bo'lidi edi. Shu ham namunalini darajada bo'lmadi. Biz dafatar tutib, javoblarini kitoblardan axtarib, yozib, keyin o'qirdik. Nega hozirgi o'quchilar bor javobni o'qimaydi, shunchalik dangasalashib ketganmi?! Ba'zi yoshi katta o'qituvchilar "O'zi biz ham shunday qilishimiz kerak, bekor avaylaymiz", deyishdi. Shu fikringiz bor ekan, kimdir boshlab berishini kutish shartmi?

Komiljon HASANOV

Ta'kid

Yana o'qituvchi kaltaklandi bizga nima bo'lyapti?

Ijtimoiy tarmoqlarda shu yilning 26-may kuni Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi 59-maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rnbosari Abbas Sultonov o'quvchining qarindoshlari tomonidan kaltaklangani haqidagi xabar tarqaldi.

Unda aytishicha, o'sha kuni soat 08:00 da maktab o'quvchilar, xususan, 9-sinf bitiruvchilari yozma imtihon topshirishi kerak bo'lgan. Ammo bir necha o'quvchi imtihonga o'z vaqtida kelmagani bois uydan chaqirtirib kelingan. Shunda maktab direktori Noila Qambariddanova hamda Abbas Sultonov kechikkan o'quvchilarga tanbel berishgan. Biroq, 9-“A”-sinf o'quvchisi Sh.A. direktor o'rnbosariga qaratara “Menga sening imtihoning umuman kerak emas, imtihonsiz ham yashaveraman”, deya maktabdan chiqib ketgan.

Shundan so'ng direktoring chiquviga binoan o'quvchining otasi maktabga kelgan. Pirovardida bola otasining ko'z o'ngida qo'pol muomalasi uchun uzr so'ragan. Ana shu payt xonaga ikki yigit kirib kelib (biri – Sh.A.ning amakivachchasi, ismi Muhammad), A.Sultonovni kaltaklashgan. Ya'ni uni burchakka tirab urishgan. Oqibatda shkaf oynasi sinib, direktor o'rnbosarining badanni kesib ketgan.

Albatta, o'sha zahotiyoy tez tibbiy yordam va profilaktika inspektoriga xabar berilgan. Tez tibbiy yordam xodimlari esa direktor o'rnbosarini tuman tibbiyot birlashmasiga olib ketib, unga tibbiy yordam ko'rsatishgan. Qolaversa, Samarqand viloyati

ichki ishlari boshqarmasi tomonidan ayni holat nazoratga olingan.

Xabarlarda tergovga qadar tekshiruv olib borilayotgani, jabrlanuvchiga tibbiy ekspertiza tayinlangani hamda ekspertiza xulosasiga qarab, vaziyatga huquqiy baho berilishi aytilgan. Darhaqiqat, qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyatimizda har qanday jinoyat yoki huquqbuzarlik uchun jazo muqarrar. Ya'ni zo'ravonlar qilmishlariga yarasha jazoga tortilishi shubhasiz.

Lekin biz masalaning mohiyati va oqibatiga e'tibor qaratmoqchimiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi paytlar o'quvchilarning ota-onasi yoki boshqa yaqinlari tomonidan ustoz va murabbiylarning kaltaklanishi yangilik bo'lmay qoldi. Binobarin, mutasaddilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilmoqchimiz: xo'sh, nega bunday noxush holatlarga barham berilmayapti? Ko'chadan kelgan shaxsnинг (garchi u o'quvchining yaqini bo'lsa ham) maktabga bostirib yoxud beruxsat kirishga, eng asosiyi o'qituvchiga qo'l ko'tarishga nima haqqi bor?

Bizningcha, yuqoridagi singari asabubuzarliklarga chek qo'yish maqsadida qishloq joylardagi umumta'lim maktablariga qo'riqchi xizmati xodimlari tayinlansa, nur ustiga nur bo'lar edi. Axir, ko'pgina shahar maktablarida ana shunday tartib o'matilgan-ku.

Yoshi kattalar juda yaxshi bilishadi, ilgari o'qituvchi koyisa, hatto ursa ham o'quvchi uyiga borib, bunday voqeani aytolmagan. O'z navbatida, ota-onasi yoki qarindoshlari ham lom-mim deyolmagan. Aksincha, ular “O'zing biror ayb ish qilgandirsan yoki darsni tayyorlamagandirsanki, o'qituvchingdan kaltak yeganasi” deya farzandlari tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishgan. Ayrim qattiqko'l otalar o'qituvchinikiga qo'shimcha qilib, bolasiga yana taraki tushirgan. Ayniqsa, o'sha ota-onalarining aksariyati maktabga borib, muallimdan kechirim ham so'ragan. Shunda o'sha o'quvchi – bo'lajak askar, bo'lajak oila boshlig'i oriyatlari va mas'uliyatlari inson bo'lib ulg'aygan.

Yana bir mulohaza. Garchi ilgari ommaviy axborot vositalarida muhokamaga tashlangan bo'lsa ham aytmoqchimizki, bunday xatti-harakatlar uchun belgilangan javobgarlik masalasi qayta ko'rib chiqilsa, aniqrog'i jazo chorasi kuchaytirilsa, maqsadga muvofiq bo'larvardi. Vaholanki, ota-bobolarimiz davrida “Eti sizniki, suyagi bizniki” deb topshirilgan bola maktabga. Hozir esa...

Eng muhimmi, dono xalqimizda “Ustoz otangdan ulug’” degan purhikmat gap bor. Shunday ekan, ustozga hurmat, uning izmidan chiqmaslik, tanbehidan to'g'ri xulosa chiqarish kabi fazilatlar bola ongida yoshligidan singdirilishi zarur. Aksincha, o'qituvchi tugul tengdoshlaridan biri hazillashib qo'lini qayririb qo'ysa ham otasi, akasi yoxud qarindoshini yetaklab keladigan “o'g'il bola”lar ko'payib boraveradi.

Kurshid SULTONOV,
journalist

Haftaliklar

Haftaligimizni bir hayratlanarli xabar bilan boshlamoqchimiz: poliz mahsulotlari bozorlarda endi-endi qorasini ko'rsatayotgan bo'lsa-da, insofoga kelgan shekilli, kattakonlar hafta davomida qovun tushirganicha yo'q.

Xalq ta'limi vaziri BBCga intervyu berdi. Umumiy xulosalarga qaraganida, hurnmatli o'qituvchilar, 1000 dollar “otmen”! Tuyaning dumti yerga tegishiga hali ancha borga o'xshaydi. Rus maktablarini inobatga olmaganda bizda oliy ma'lumotli kadrlar keragidan ortiq emish. Aniq fanlar bo'yicha hatto bir shtatda 4 nafardan o'qituvchi ishlayotgan... Mutaxassisligi mehnat bo'lsa-da, o'qituvchi yetishmagani uchun fizika fanidan dars berayotgan chekka hududlardi muallimlar, vazirimizni bir mehmonga chaqirmsasangiz bo'lmaydiyov.

Quyidagi xabar o'qituvchilar obro'si minbarlardagina ko'tarilgan mamlakatda u qadar yangilik bo'lmasa-da, e'tiboringizga havola etamiz:

Toyoqda imtihonga kelmagan o'quvchiga tanbel bergen direktor o'rnbosari uning qarindoshlari tomonidan kaltaklandi. Bunday hollar avvalroq Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ham kuzatilgan edi. Shu sababdan maktablariga maxsus himoya kiyimlarida borishingizni tavsiya qilamiz. Munajjimlar bashoratiga qaraganda bu millat bolalariga buyuk kelajak tilaguvchi har bir o'qituvchining boshida bor.


Buxoroda bo'llib o'tgan “Ipak va ziravorlar” festivalida chavandoz ot-poti bilan qo'shilish yiqildi. Ammo qo'lida ko'tarib ketayotgan Vatanimiz bayrog'ini yerga tushirmadi. Qadrli muallimlar, sizni ham qancha turkilashmasin, oyo'gingizdan chalishmasin, yelkanginda ulg'ayayotgan millat ertasini yerga tushirmaysiz degan umiddamiz.

Dolzarb mavzu

Ular kimyo mutaxassislarimi?

Kimyo darsliklarda, test variantlarda qo'pol kimyoviy xatoliklar, yanglish atamalar ko'payginki, o'quvchilar, abituriyentlarning taqdiri meni o'yantiradi.

1. 8-sinf, “Kimyo” darsligida (T., 2019-y, 83-bet) kimyoning qadrli va kerakli “Elektron balans tenglama” atamasi qo'pol tarzda “sxema”, “xususiy sxema” deyilgan. Mavzu qoniqarsiz tushuntirilgan. Buni bir professor domlam shunday tushuntirgan edi:



+ va - zaryadli elektronlarni balanslash maqsadida 3 va 2 sonining o'mini almashtirdik. Va bu sonlarni tenglamadagi egalarining oldiga koefitsiyent etib qo'yidik, keyin kimyoviy tenglamani tenglashtirdik. Mana, elektron balans tenglamalarining xizmati.

2. 11-sinf umumiy kimyo darsligi 132–144-betlarida “Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar” mavzusini qoniqarsiz tushuntirilgan (T., 2004-y). Xususiy sxema degan! Jadvalda: Ti, Zn, Ca, Hg, Ni kimyoviy elementlarning elektron konfiguratsiyasi noto'g'ri berilgan.

3. 10-sinf organik kimyo kitobi 87-betida nuklefil reaksiyalar berilmagan. Elektrofil reaksiyalar chala tushuntirilgan (T., 2017-y).

1892-yili Jeneva shahrida bo'lgan kimyogarlarning konferensiyasida “Kimyoviy tenglamalarning oldiga qo'yilgan kasrli koefitsiyentlar qattiq tanqid qilinib: “kimyoviy tenlamalarning oldiga qo'yiladigan koefitsiyentlar butun sonlarda bo'lsin” deb qaror qabul qilingan edi. 1962-yili SamDUNing kimyo fakultetida bo'lib o'tgan Yosh ximiklar konferensiyasida ham valentlikni oksidlanish darajadan farqlay olmagan kimyo darsliklari mualliflarini, kasrli koefitsiyentlar ishlatalgan mualliflarni misollar va isboti bilan tanqid qilgan edim.

Ammo bizdag'i kimyo darsliklarda kasrli koefitsiyentlar ko'paydi. Bu savodsizlik. Bu kimmingdir soya-

sida qolgan mualliflarning xatolari deb bilaman. Ular agronom yoki biologlar degan gumondaman.

4. 11-sinf darsligining 9-betidagi 1-masalaning berilishi ham, javobi ham qo'pol kimyoviy xatodir.

Test savollarida laboratoriya masalalari berilgan. Axir qishloq maktablarida laboratoriya jihozlari mavjud emas. Shaharlardagi maktablar ham to'liq ta'minlangan deya olmaymiz. Borlari ham foydalananishga yaroqsiz. Darslikdagi ayrim tenglamalar o'quvchilarga murakkablik tug'diradi. Hatto ayrim kimyo o'qituvchilari ham bu masalalarni yechishga qiynaladi.

Ta'lim rivoji haqida minbarlarda yonib gapirayotgan rahbarlarga avval maktabga e'tibor qarating, darsliklarni mukammallashtiring degan bo'lardim. O'quvchilarimiz qiyinalib yoki zo'rma-zo'raki emas, salohiyatiga tayanim bilim olsin. Ana shunda biz aytayotgan kelajagi porloq yurt rivojiga hissa qo'shadigan yosh avlod tarbiyalanadi.

Abay UMIROV

Chiroqli tumani

Dolzarb mavzu

Yana attestatsiya haqida

yoxud attestatsiya faqat test sinoviga asoslanishi kerakmi?

Shu kunlarda xalq ta'lifi xodimlari tomonidan eng ko'p muhokama qilinayotgan mavzu attestatsiya bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Aprel oy davomida mamlakatimizning barcha hududlarida malaka toifasini olishga talabgor o'qituvchilar uchun test sinovlari o'tkaziladi. Dastlab oliy va birinchi toifaga, ikkinchi bosqichda esa ikkinchi malaka toifasiga talabgorlar uchun test sinovlari bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, bu yilgi attestatsiya jarayonlari Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-mayda qabul qilingan 392-qaroriga ilova sifatida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi, Maktabgacha ta'lif, Xalq ta'lifi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sport hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirliklari ning qo'shma qaroriga binoan 2019-yil 19-avgustda qabul qilingan "Baholash mezonlari" asosida o'tkazilmoqda.

Mazkur "Baholash mezonlari" o'qituvchilarining professional mahorati va malakasini aniqlashga qaratilgan, adolatliti va mukammal me'yordan iboratligi bilan shu vaqtga qadar amalda bo'lib kelgan qoidalardan bir qator ijobjiy jihatlar bilan farq qiladi.

Ammo hanuz attestatsiya masalasi ta'lif tizimi xodimlari tomonidan qizg'in bahs-munozaralarga, noroziliklarga sabab bo'lmoida.

Xo'sh, buning sababi nimada? Amaldagi attestatsiya "Baholash mezonlari" ga ko'ra, xodimning mahorati va malakasi uch yo'naliş bo'yicha baholanishi va aniqlanishi kerak:

1. Dars o'tish mahorati.
2. Mehnat samaradorligi.
3. O'quv fani bo'yicha malaka sinovlari.

Holatni umumiy o'rta ta'lif mifiklarini yuqori sinf o'qituvchilarining malaka toifalarini belgilash uchun asos bo'ladigan "Baholash mezonlari" ning 2-bo'lim, 2-bobi misolida ko'rib chiqsak.

"Baholash mezonlari"da belgilangan qoidalarda o'qituvchilar mehnatini baholasha, yuqorida aytil o'tilgan har uchala yo'nalişdagisi natijalar hisobga olinishi belgilangan. Ammo shu davrga qadar o'tkazib kelinayotgan attestatsiya jarayonlarida asosiy e'tibor, uchinchisiyo'nalişdagisi "O'quv fani bo'yicha malaka sinovlari" ga qaratilib, test sinovlarida erishilgan natijalar malaka toifasini berish uchun asos bo'lib kelmoqda.

Buning asosiy, obyektiv bir sababi borki, bu sabab test sinovlarining birlamchi ahamiyat kasb etishiga xizmat qilmoqda. Ya'ni test sinovlari, attestatsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi eng yuqori organ bo'lgan Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi tomonidan amalga oshiriladi. Hududi ta'lif organlari test jarayonlariga aralasha olmaysdi. Hududi xalq ta'lifi organlari faoliyatiga baho berishda esa o'qituvchilarining malaka toifalarining qay darajada yuqori ekanligi muhim ahamiyat kash etadi. Shu-

ning uchun ham test sinovlarida yetarli ball to'plagan xodimga yuqori malaka toifasini berish hududi xalq ta'lifi boshqarmasi va bo'limlari uchun o'z imkoniyati doirasidagi ish bo'lib qolmoqda... Test sinovidan yetarli ball to'pladingmi? Bo'ldi... Toifa naqd...

Yuqori mehnat samaradorligiga erishib, uzoq yillarda davomida ta'lif sohasiga xizmat qilib kelayotgan, birinchi va ikkinchi yo'nalişlardan yetarlicha ball to'plagan, ko'plab tajribali ustozlarning bitta yoki ikkita testni xato ishlab malaka toifasi tushib ketayotganligi esa ko'pchilikning e'tirozlariga sabab bo'lmoida.

Agar jarayon batafsil tahlil qilinadigan bo'lsa, norozilik va e'tirozlar besabab emasligi oydinlashadi.

Hozir yuqori toifaga o'tish uchun "O'quv fani bo'yicha malaka sinovlari", ya'ni test sinovlarida yetarli ball to'play olsa kifoya qilmoqda. Agarda test sinovidan yetarli ball to'play olmasa, xodim tomonidan "Dars o'tish mahorati" va "Mehnat samaradorligi" yo'nalişlardan hattoki maksimal ball to'plash ham, umuman ahamiyatiga ega bo'lmay qoldi. Ya'ni test sinovidan yetarli ball to'play olsa kifoya...

Muammoga o'qituvchilar ko'zi bilan nigoh tashlansa, attestatsiya borasida bahs-munozaralarga kirishayotganlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: test sinov tarafdarlari va test sinoviga qarshilar.

Ularni taxminan yoshlar va yoshi ulug'lar guruhlariga ham bo'lish mumkin. Chunki test sinovi tarafdarlari asosan yosh o'qituvchilaridan iborat bo'lsa, test sinovlariga qarshilarining ko'pchilik yoshi ulug' ustozlardir.

Garchand nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan bo'lsam-da, ijtimoiy tarmoqlardagi tortishuvlarda test sinovi tarafdarlari tarafida bo'lardim. Chunki men o'qituvchining mutaxassisligi bo'yicha va umumiy akademik bilimi yuqori bo'lishi kerak deb hisoblayman. Maktab va universitetda tahsil olgan ustozlarining bu ko'rsatkichi yuqori bo'lgan.

O'qituvchi dars o'tish uchun sinfonoga kirar ekan, o'qituvchilarining o'z faniga oid, shuningdek, boshqa barcha savollariga ham javob bera olishi, dars o'tish jarayonida esa, boshqa fanlarga oid ma'lumotlardan ham foydalana olishi kerak.

Ammo bir necha oylar davomida ijtimoiy tarmoqlarda davom etgan tortishuvlardan so'ng fikrim o'zgaridi. Dastlab yoshi ulug' ustozlarga "Bo'shshmaslik" kerak, "Ko'proq

o'qish va izlanish lozim" deb maslahat bergan bo'lsam, keyin esa o'zim sezmagan holda sekin-asta ular tarafiga o'ta bordim. "Ma'rifat" mushtarilar" telegram guruhidagi tortishuvlardan birida ramziy bir dona testni xato ishlab malaka toifamni tushirmoqchi ekanligimi aytdim. Ko'phillik meni fikrimdan qaytarmoqchi bo'ldi, ba'zilar buning uchun testlarni to'liq ishlay olishim kerakligini aytishdi. Ammo men aytganimdek qildim. Oliy malaka toifamni saqlab qolish uchun attestatsiya test sinovidan 72,5 ball to'pladim. Ya'ni oliy toifaga o'tish uchun talab etiladigan 30 ta test o'miga 29 ta test ishladim.

Sababi, o'qituvchilar mehnatiga baho berishda Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori va uning jirosida obyekтив yondashuv yo'q. Aslida mazkur qaror, yuqorida aytil o'tilganidek, o'qituvchilar faoliyatiga baho berishga profesional yondashilgan, mukammal qaror. Ammo....

Ammo qarordagi bir jumla, qaroring obyekтивligini keskin pasaytirib yuborgan. Ya'ni o'qituvchilar tomonidan to'plangan balning qaysi malaka toifasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilgan jumla shunday belgilangan: "... Baholash mezonlaringin har biridani...". Agarda ana shu jumla "Baholash mezonlaringin har bir yo'nalişidan to'plangan balning o'rtacha qiymati..." deb belgilansa, barcha tushummovchiliklarga o'z-o'zidan barham berilardi. Adolatliti baholash tizimi yaratilar edi.

Fikrimni tushuntirish uchun misol keltiraman. Masalan, "Baholash mezonlari"ning birinchi va ikkinchi yo'nalişlardan 90 baldan to'plagan o'qituvchi uchinchisi yo'nalişdan 50 ball to'pladi deylik, hozirgi amaldagi tartibga ko'ra, bu o'qituvchi "yiqiladi", ya'ni malaka toifasini ololmaydi yoki malaka toifasi tushiriladi. Agarda o'rtacha qiyamat olinganda u olly toifaga o'tgan bo'lardi. Ya'ni umumiy 230 ball, o'rtacha 77 ball to'plab oliy toifaga o'tardi. Deylik, yana boshqa bir o'qituvchi birinchi va ikkinchi yo'nalişlardan 55 baldan, uchinchisi yo'nalişdan esa 75 ball to'pladi.

Amaldagi tartibga ko'ra u olly toifaga o'tadi. Bu yerdaadolatsizlik bo'la-yotganini tushunish uchun judayam aqlli bo'lish kerak emas. Agarda o'rtacha qiyamat olinganda u umumiy 185 ball to'plab, o'rtacha 61,6 ball bilan birinchi toifaga o'tgan bo'lardi. Va eng muhim, adolat tantana qilgan bo'lardi..

E'tirozlar bo'lishi mumkin — misolimizdag'i ikkinchi o'qituvchi burchalik kam ball to'plashi mumkin emasligi haqida... Mumkin.... Hatto bundanda kam ball to'plashi mumkin. Chunki amaldagi "Baholash mezonlari" da o'qituvchi faoliyatiga baho berishda anchagini qattiq talablar qo'yilganligi uchun ko'phillik o'qituvchilar hatto 50 ball to'plashi ham muammo...

Masalan, fan olimpiadsasida tuman bosqichida g'oliblarga 5 ball, viloyat bosqichida 10, Respublikasi va Xalqaro

bosqich g'oliblariiga esa 15 ball berish belgilangan.

O'zimizning tuman misolida, Tarix fanidan mazkur yo'nalişda o'qituvchilarining qanča ball to'plashi mumkinligi imkoniyatini tahlil qilib chiqsak. Ma'lumki, fan olimpiadasining tuman bosqichida 9–11-sinflardan har bir sinifa 1 yilda 3 nafardan, jami 9 nafar, uch yilda esa 27 nafar o'quvchi sovrinli o'rin egallashi mumkin. Ammo ayrim o'qituvchilar yetarlicha ball to'play olmagan sababi yakunni raqam biroz kamroq bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari, ayrim maktablar va ustozlarning o'qituvchilar ko'proq o'rin egallashadi. Masalan, so'nggi uch yilda mening 6 nafar o'quvchim, 1-, 3-, 26-, 29-maktablarning esa 2–6 nafardan o'qituvchilar sovrinli o'rin egallashgan.

Viloyat bosqichida esa sovrindorlarga 10 baldan beriladi. Ammo sovrindorlarning soni keskin kamayadi. Masalan, so'nggi uch yilda tumanimizdan faqatgina mening bir nafar o'quvchim 2-o'rin sohibi bo'ldi xolos. Respublika bosqichi haqida esa gapirishga ham hojat colmaganli o'z-o'zidan tushunarli bo'lsa kerak.

Tuman, viloyat va Respublika miqyosida ish tajribalari ommalashirilganligi uchun esa mos ravishda 5, 20 va 25 ball, metodbirashmalar faoliyatiga esa 5, 10, 15 ball beriladi. Ammo metodbirashmalar faoliyatini va ommalashirish sohasidagi haqiqiy ahvol qanday ekanligi esa barchaga ayon.

O'zlashtirish samaradorligi 56–70 foiz bo'lsa 20 ball, 71–85 foiz bo'lsa 25 ball, 86–100 foiz bo'lganda esa 30 ball beriladi. Anchagina salmoqli ball to'plashi mumkin bo'lgan bu yo'nalişda ham maksimal ball to'plashi imkoniyati pastligini barcha o'qituvchilar judayam yaxshi tushunadi. Chunki samaradorlik degan 4 va 5 bahoga o'qiyidigan va o'zlashtiridigan o'qituvchilar ulusliga qarab aniqlanadi. Demak chegirma ballar olib tashlansa, 50 balni ham eng faol o'qituvchilargina to'play olishi oyinlashadi.

Ushbu fikrlarim orqali test sinovlarining ahamiyatini pasaytirib, yoki test sinovlarida yetarli ball to'plagan o'qituvchilar chilgara, birinchi va ikkinchi yo'nalişlarda to'plashi mumkin bo'lgan ballarini qayta ko'rib chiqish kerak, ularga malaka toifalarini bermaslik kerak, demoqchi emasman.

Faqatgina amaldagi qoidalarga ozgina tuzatish kiritish orqali barcha-bar-chaga birday manzur bo'ladigan tizim yaratilsa, yaxshi bo'lardi, mamlakatimizdag'i ta'lif ravniga xizmat qilaradi, degan fikrdaman.

Zero, bunda butun dunyoda amal qilinadigan oddiy bir mantiqqa ham amal qilingan bo'lardi: biror narsaga umumiý baho berish uchun odatda umumiý ko'rsatkichlar olinadi...

Hormangizlar endi. Issiqlar qiynamayaptimi? Qozon-tovoq, echki-ulq, burun-qulq... hammasi omonmi? "Qirq yillik qadronini uchratganday, quyuq so'rashyapti, kim o'zi bu bejog'im?", deb hayron bolayotgandirsiz. Bir ko'rgan tanish, ikki ko'rgan bilish. Ustiga-ustak indamaygina kelib so'z boshlasam, o'zbekchilikka ham tog'ri kelmaydi.



O'zimdan so'rasangiz, Yangisoy dan bo'laman. Eshitmagan ekanman, deysizmi? Qaydan ham eshitardingiz qishloqning nomini yaqindagina o'zgartirgan bo'lsak. Yangisoy bu — o'zimizning Ko'na qishloq-da.

Ha, zamonga hamohang bo'lgimiz keldi. Yaqinda oqsoqolimiz shaharga kelib ketgan ekan. Atrosga qaras, hamma joy qurilish-burilish, har qadamda Falonchi city. Pistonchi city. Hamisha o'zimiznikilarning obro'si uchun kurashib kelgan oqsoqol bobo buni ko'tarolmagan-da. Kelasolib elni maylisga chaqirib, "shaharda hamma joy sity, nima, bizi eshil qisqanma? Qishloqning nomini o'zgartiramiz" deb oyoq tirab oldi. Shu paytgacha gapi ikki bo'lмаган oqsoqolning oldiga chiqadiqan mard qayda? Ertasigayoq qishloqqa kiraverishda bir eski tunukaga "Ko'na sityga xush kelibsiz!", deb yozdirib ham qo'ydi.

Sitymizning "Yangi qishloq" qa aylanishining o'zi alohida hango'ma. Gadoytopmas qishlog'imizga katta-katta amaldorlarning qadami yetmasa-da, to'y bor, aza bor qo'shni qishloqdagilar kelib turadi. Ular o'tgan-ket-ganning peshonasi uriladigan joyga osib qo'yilgan tunukani ko'rmyadi, deysizmi? Xullas, qo'shni qishloqdagilardan biri oqsoqolning yoniga borib "Rais bova, qishloqning nomini o'zgartiraman, deganigiz yaxshiku-ya, lekin biz-larga ham bir maslahat solmagsiz-da.

"Ko'na sity" degani nimasi? Buni tarjima qilsak, "Eski shahar" bo'lib qoladi. Ustiga-ustak qishlog'ingiz aspal yo'ning qorasini ko'rmangan bo'lsa, o'zingiznilar hashar bilan qurgan balnisa bor, xolos. Uyida aroq sotadiganlarning aytmasa, birorta magazin ham yo'q. Yana shahar bo'laman deysizlar", deb bir-ikki achitib gapiribdi-yu ko'p o'tmay pushaymon ham bo'libdi. Shu payt oqsoqolning ko'zi olayib, mehmon-pehmomligiga qaramay orqasiga tepib, qishloqning narigi boshigacha quvlab boripti. Bu kattakonlarning kichiklari ham haq gapni eshitsa-da, o'rliyi zo'rligini qo'ymaydi.

Haftalar o'tgach biroz jahdan tushib, o'ylab ko'rgan shekilli, haligi tunukani oldirib tashladi. Lekin baribir qishloq nomini o'zgartirish istagidan voz kechgani yo'q. Yana maylis. "Mayli, sity bo'lmasa, bo'lmasa. Mamalakatimizda yangilanishlar kechayotgan bir paytda biz "Ko'na" bo'lib qolsak, uyat. "Yangi qishloq" deb nomlaylik desak, enangni emgur eskiqo'rg'onliklar bizdan oldin ulgurishibdi. Necha ming yillardan beri bobolarimiz manov soyning bo'yini makon qilib kelgan. Shu soy bizga hayot berib turibdi. Kelinglar, qishloqning nomini "Yangisoy" deb ataymiz". Oqsoqolning amri vojib. Shundan beri yangisoylikmiz, og'aynilar.

Tepkida n
ko'kar-
gan

joylari hali tuzalmagan shekilli, qo'shni qishloqdagilar ham "Rayis bova, soyning yangisi ham bo'ladi?" deb gaplashashga jur'at etmadni.

"Xo'sh, Yangisoyingda nima yan-giliklar" deysizmi? Yangiliklar ko'p, o'g'ajon. Qishloqning nomini "Yangi" qo'yanimiz uchun uyalgan shekilli, eski yomg'irlar yog'may qo'ydi. Qurg'oqchilik. Mol-hol yeganiga yemish topolmay, saqich chaynab yotibdi. Ochdan o'lganining sanog'i yo'q. Sotay desa, yarim puliga ham olmaydi. Lekin go'sht qimmat. Hozir mehmon-ku mehmon, bemahal shabada essa ham oyog'ining tagiga jonliq so'yayapti tanti qishloqilar.

Bu voqealarga qarama-qarshi o'la-roq, hamqishloqlarning hammasi yangi molxona qurish bilan ovvora. Oqsoqol shunday topshiriq bergan. Qishloqning nomi "Yangi" bo'lganiga yarasha, har bir xonardon uning yangilanishi-ga o'z hissasini qo'shishi kerak. Har yili uy quray desa, kissa ko'tarmaydi. Ustiga-ustak shaharga ko'rk berib tur-gan ham eski imoratlar. Ishbilarmoq qishloqdoshlarni o'yab-o'yab oxiri molxonalar yangilab turishga qaror qilishi. Aqliga balli, mallades! Qishloqda nima tez eskiradi — molxona eskiradi. Bu mol degan jonivor tartib-intizomni bilmasa, qo'ling sin-gur kelinchaklar ham tappini devorga

ko'pligidan qomati egilib qolgan bir boboyni savolga tutdim:

— Bobo, bu medal-u ordenlarni sizga nima uchun berishgan?

— A-a?

— Ctrl+V.

— Medallarni deysanmi? Ha, mana buni Stalingrad mudofaa-sida qatnash-ganim uchun, bunisi Polshaning ozod bo'lishi sharafiga, bunisini esa Berlinni olganimizda berishgan...

Quyosh botgunicha bobo tushmagur chap ko'ksidagi medallarning yarmini ham tavsiyab berishga ulgurmadi. O'ng ko'ksida undan ham ko'prog'i qolib ketdi. Qarasam, bir oyda ham tamomlay olmaydigan. So'ng asta xayrlashib

Yangisoy dan bir hovuch

yopadi. Keyin bir yilga bormay, chol-devordan farqi qolmaydi. Molxona, nima sizga, maktabmida 40 yil oldin qurilgan bo'lsa ham "yangi" degan nomni saqlab qolgan? Shunday qilib, qishlog'imizda molxonabay islohotlar davom etmoqda. Bunga pulni qayerdan olasizlar deysizmi? Qishlog'imiz yangi bo'lgani bilan unda ba'zi eskiliklar ham saqlanib turibdi. Qayerdan bo'lar-di. Tinim bilmas hamqishloqlarim halayam avvalgiday Rossiyaga qatnab yoti-pi-da. Ustiga-ustak oqsoqolimiz ham malades odam. Pora olmagani uchun davlat bergen poradan, e uzr, mukofot pulidan oz-moz qarashib turibdi.

Ha aytgancha, xabarning bormi
o'zi? Hozir
pora olma-

jo'nadim. Avtobusga chiqishim bilan bir onaxonning ko'ksida ham medal borligiga ko'zim tushdi. Qiziquvchan-ningimiga borib, uni ham savolga tutdim:

— Ey bolam, bu medalgala erishish oson bo'lmagan. 15 ta farzandni dunyoga keltirdim. Cholim rahmatli to'rtinchisidayoq "Bo'ldi, kampir, shu yog'ini eplab olsak ham yetadi", deb qaysarlari qilsa-da ahidmam qaytmadim. Bu "Qahramon ona" medalni.

— Boboya ham u-bu narsa teg-dimi? — so'radim qitmirligim tutib.

— Cholim rahmatli u dunyoga yo'llanmani taxt qilib qo'yanan ekan. Medalni olishimdan bir kun oldin qazo qildi. 15 farzandni o'zim boqib katta qildim.

Qiying zamonlarda 15 farzandni tarbiyalash, yoki har nafasda o'lim ta'qib qilib turgan on joningni aya-may yurt uchun kurashish naqadar katta jasorat bo'lsa, ayni zamon-da biror davlat tashkilotida ishlab pora olmaslik ham shu qadar katta mardlik va matonatdir. Halolingiz bo'lsin, akalar! Agar sizni mukofotlash mening qo'limda bo'lganda, ja-a, "Oltin yulduz" bo'lmasa ham cho'ntakningmi, pora uzatilgan-da "yo'q" deb ishora qilib turgan qo'ningmi aksi tushirilgan bir medal taqib qo'yanan bo'lardim ko'ksingizga. Mayli o'ksinmang, keyinroq bir amallarmiz.

Faqat meni o'ylantirgan bir masalanai ham hozir o'rta tashlamasam bo'lmaydi. Bu akalar kichik bir tashkilotning kichik bir xodimlari. Ularga nari borsa 10 000, 20 000 dollar pora taklif qilishlari mumkin. Agar o'sha porani olishmasa, uzatilgan "suyunchi"ning bin baravarini yoki undan sal ziyyodrog'ini mukofot tariqasida topshirarmiz. Ustiga Sochiga yo'llanma qo'shib bersak ham davlatimiz kamayib qolmaydi, lekin bahaybat cho'ntagiga million-lab, milliardlab dollarдан kam pul qistirilmaydigan kattakonlarning ham vijdoni uyg'oni, pora olmay qo'ysa, ularni mukofotlashga pulni qayerdan topamiz? (Odatimizcha olimmagan poraning bir baravari miqdorida mukofot berishimiz kerak).

Shuning uchun hurmatli KATTA akalar, hozircha siz hech xijolat chek-may, gazini bosib porani olavering. Qachondir sizni ham mukofotlashga qurbimiz yetib qolar.

Huquqiy yordam

Maqola chiqargan o'qituvchining ish tajribasi ommalashgan hisoblanadimi?

2020-2021-o'quv yili ham yakunlandi. Endi ko'pchilik o'qituvchilarga 2021-2022-o'quv yilida qo'shimcha ustama berish uchun kerakli hujjatlар ko'zdan kechirilib, pedagog xodimlar faoliyati mакtab ishchi guruhi tomonidan baholanadi.

Ko'п joylarda pedagog xodimlar baholash mezonlaridagi ba'zi bandlarni noto'g'ri talqin qilishi oqibatida ayrim tushummovchiliklarga duch kelayotgan ekan. Ayrimlar ish tajribasini ommalashtirish bilan maqola chiqarishni chalaskartib yuborpati.

Ma'lumki, ilgari o'qituvchilar Vazirlar Mahkamasining 823-qarori bilan tasdiqlangan "Umumiyo o'rta ta'lim muassasalarining o'nak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish direktor jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida"gi eski tahrirdagi nizom bo'yicha ustama olish uchun albatta biron-bir jurnal yoki gazetada maqolasi chiqqan bo'lishi kerak edi. Chunki mazkur nizomda o'qituvchi baholangan yotgan o'quv yilida ommaviy axborot vositalari, ta'limga oid veb-saytlardagi chiqishlari, ilmiy-metodik jurnalardagi hamda turli konferensiyalarda maqolalar, tezislar, konsepsiylar, istiqbolli rejalari bilan qatnashish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini yanada yaxshilashga oid ishlari bo'lishi talab etilardi.

Mazkur nizomning aynan shu bandi ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'plab muhokamalarga sabab bo'ldi. Ko'pchilik o'qituvchilar nizomdag'i qolgan baholash mezonlariga e'tibor bermay, faqat maqola yozish (ko'p holda buyurtmaga yozdirish) bilan ovora bo'lib goldi.

Haqiqatdan ham ustama olish uchun o'qituvchilarining maqola yozib chiqarishi o'zini oqlamadi. Sababi, aksar maqolalar pulga yozdirildi. O'qituvchi o'zi mehnat qilmasdi. Buning ortidan esa turli ko'rinishdagi jurnal va bo'larbo'limas konferensiylar ko'payib, ko'pchilik o'qituvchilarining pullari havoga sovrildi. Agar o'qituvchilar maqolasi bilan bu konferensiyyada qatnashsa, maqolaning bitta sahfasi uchun 15-20 ming so'm miqdorda pul to'lanardi.

2020-yil 31-dekabrdan Vazirlar Mahkamasining 823-qarori bilan tasdiqlangan "Umumiyo o'rta ta'lim muassasalarining o'nak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armasini tashkil etish va uning

mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomga Vazirlar Mahkamasining 831-qarori bilan o'zgartirishlar kiritildi. Bunga ko'ra maqola yozish bandi olib tashlamdi. Endi asosiy e'tibor o'qituvchilarining choraklik o'rtacha baholari, o'zlashtirishning sifat ko'rsatkichi, ularning olimpiada, tanlov, musobaqlar va boshqa tadbirlardagi ishtiroti va natijalari, o'qituvchining xalqaro tadqiqotlariga o'quvchilarini tayyorlab borishi va ish stajiga qaratiladi.

Bunda o'qituvchining ish tajribasi ommalashtirilganiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Xo'sh, o'qituvchi ish tajribasini ommalashtirish o'zi nima va u qay tartibda amalga oshiriladi?

2021-yil 26-yanvarda Xalq ta'limi vazirligi huzurida gi Respublika ta'lim markazi tomonidan o'qituvchilar, rahbar xodimlar, shuningdek, metodistlarining "Ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish" tartibi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur jarayon aniq belgilab berilgan tartib bo'yicha amalga oshiriladi. Jurnal yoki gazetalarda maqola chiqarib qo'yib, ish tajribam ommalashdi deyish katta xato bo'ldi.

Ilg'or ish tajribalarini quyidagi ketma-ketlikda — maktab, tuman (shahar), viloyat va respublika miyosida ommalashtiriladi:

Maktab miyosida ommalashtirishda ilg'or ish tajriba maktab foydalanishini tomonidan aniqlanadi, tahsil qilinadi, umumlashtirilish pedagogika kengashining qarori bilan maktab miyosida ommalashtiriladi. Tuman miyosida ommalashtirish uchun maktab pedagogika kengashi qarori, maktab rahbari taqdimnomasi va o'qituvchining faoliyatiga oid hujjatlari, yaratgan yangiliklari haqida ma'lumot tayyorlanib, tavsiyalari tuman xalq ta'limi bo'limiga taqdim etiladi. Ilg'or ish tajriba tuman (shahar) miyosida ommalashtirishda tuman (shahar)larda tashkil etilgan tayanch maktablar negizida 3 oy davomida o'rganib chiqiladi va aprobatsiyadan o'tkaziladi. Tayanch maktabdar olingan xulosa asosida Metodik kengash muhokamasi ko'rib chiqiladi va tuman (shahar) miyosida ommalashtirish bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Viloyat miyosida ommalashtirish uchun Metod kengash qarori, o'qituvchining faoliyatiga oid hujjatlari haqida ma'lumot, tayyorlangan tavsiyalari va xalq ta'limi bo'limi mudirining taqdimnomasi viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga taqdim etiladi. Viloyat miyosida ommalashtiri-

rish uchun taqdim etilgan ish tajribalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmasini va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari huzuridagi o'quv-metodika kengashi a'zolari tomonidan ikki oy muddat ichida seminar, o'chiq dars, taqdimot orqali o'rganib chiqiladi va o'quv-metodika kengashi qarori bilan viloyat miyosida ommalashtiriladi. Respublika miyosida ommalashtirish uchun o'qituvchining faoliyatiga oid hujjatlari, ilg'or ish tajribalarini haqida ma'lumot, tayyorlangan tavsiyalari hamda o'quv-metodika kengashi qaroridan ko'chirma asosida hududiy xalq ta'limi boshqaruv organining rasmiy xati orqali Respublika ta'lim markaziga taqdim etiladi.

Respublika ta'lim markaziga taqdim etilgan hujjatlari tegishligi bo'yicha metodistlar tomonidan ekspertlarni jaib etgan holda 1 chorak (uch oy) davomida o'rganiladi. O'rganilgan ish tajribalarini fan yo'nalishidagi Ilmiy-metodik kengash yig'ilishlarida muhokama qilinadi va Ilmiy-metodik kengash qarori bilan respublika miyosida ommalashtiriladi.

Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisini aniqlash yo'nalishida o'tkaziladigan respublika miyosidagi tanlov g'oliblari, final ishtirokchilari hamda onlayn darslarda ishtirok etib, respublika darajasida 20 va undan ortiq onlayn dars o'tgan o'qituvchilarining ilg'or ish tajribalarini respublikada to'g'ridan-to'g'ri ommalashtiriladi.

Tushungan bo'lsangiz, ish tajribani ommalashtirish bitta maqola yozib hal qilib qo'yiladigan jarayon emas. Buning uchun bir qancha hujjatlarni rasmiylashtirishga to'g'ri keladi.

Gazeta va jurnallarda maqola chiqarish esa, bu o'qituvchining xohish-istiklari va qiziqishlariga bog'liq jarayon. O'qituvchilar tomonidan yozilgan maqolalar faqatgina ular attestatsiyadan o'tayotgan paytida internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalariga ekanligini aniqlash bo'yicha bashlash mezonlarida yordam beradi, xolos. Maqola yozishning uchun siz shunchaki ijod qilishningiz kerak. O'zgalar bilan tajribasini bo'lishmoqchi, ichidagi fikrlarini ko'pchilik e'tiboriga havola qilmoqchi bo'lgan insonlarga maqola yozishi kerak. Maqola yozib, kimlardandir jimjimador sertifikat kutish, buning uchun esa maktab ma'muriyatidan ustama talab qilish mutlaqo noto'g'ri. Maqola yozish bu asosan ijodkor o'qituvchilarining ishi. Buning uchun kimlargadir pul berib, buyurtmaga maqola yozdirish shart emas.

Ulug'bek PO'LATOV,
blogger,
xalq ta'limi tizimi xodimi

"Zimmamizda ulkan mas'uliyat bor"

Prezidentimizning "Yoshlar tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosi yuzasidan bugun ta'lim maskanlarida, mahallalarda rejalar tuzilib, xayrlı ishlar boshlangan. Buni Toshkent kimyo-teknologiya instituti misolda ko'rishimiz mumkin.

"Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da institutimizda talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida ularning savoxxonligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lg'a qo'yish va biznes rejalar tuzish, ularni hayotga tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Xususan, talabalarning salomatligini tiklash maqsadida institut miyosida "Rektor kubogi" va "Milliy o'ynilar - salomatlik garovi" shiori ostida turli sport musobaqlari mutazam o'tkazib kelinmoqda.

Shu vaqtgacha institutimizda tahsil olayotgan talabalarning turarjoy bilan to'la qamrab olimmagan edi, endilik-

da farmonga asosan 2021-yil 1-maydan boshlab talabalarning o'ziga, shu jumladan, ota-onasiga (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'limgan uyda ijara shartnomasi asosida yashayotgan bo'lsa, ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'loving 50 foizi davlat budjeti hisobidan qoplanadi. Toshkent kimyo-teknologiya institutida tahsil olayotgan talabalarga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravar, respublikamiz hудудида joylashgan filiallarda tahsil olayotgan talabalarga esa 0.5 baravar miqdorda ijara haqi davlat hisobidan to'lanishi ular uchun yana bir imkoniyat va yengillik bo'ldi.

Yoshlar uchun yaratilgan ulkan im-

koniyatlardan yana biri — "Yoshlar daftari" ga kiritilgan jamiyatimizning ish bilan ta'minlanmagan yoshlari uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'z-o'zini band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskulnara va mehnat qurollari xarid qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravaridan ko'p bo'limgan miqdorda "Yoshlar daftari" jamg'armasini hisobidan subsidiya ajaratilishidir. Ishsiz yoshlarni ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozlar taqdim etilishi, tadbirkorlikni endi boshlagan yoshlarga 1 yillik ijara xarajatlarining 30 foizi qoplab berilishi ham ko'zda tutilgan. Ijara to'lovi bo'yicha belgilangan imtiyozning, birinchini navbatda, ehtiyojmand oila farzandaligiga, bilimi, xulqi bilan o'mak ko'rsatgan va faol talabalarning qoplab berilishi davlatimizning yoshlarga bo'lgan oqilona siyosatidir.

Endilikda 2021-yil 1-iyundan boshlab davlat Oliy ta'lim muassasalarining har biriga 10 tagacha mahalla fuqarolar yig'ini biriktiriladi. OTM rektortari tomonidan biriktirilgan mahalla fuqarolar yig'ini

da yashaydigan uyushmagan yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, shu jumladan, ularni xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, sport, madaniyat va kitobxonlik to'garaklariga jaib qilish chora-tadbirlari ko'rildi.

Mamlakatimizda yoshlar masalasi bu darajada e'tibor, imkoniyat, imtioy va rag'batning berilishi zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, bugun Yurtboshimiz tomonidan yoshlarning iqtidori va salohiyati, tashabbus va g'oyalari qo'llab-quvvatlanayotgan ekan, ularning tinchligi, salomatligi, bandligi va tadbirkorligiga alohida ahamiyat qaratilayotgan ekan, bizning kelajakda baxtli hayot kechirishimiz uchun bor imkoniyatlar ishga solinayotgan ekan, biz shu yurtning farzandi sifatida Ona Vatanimiz uchun yuqori malakali kadr bo'lib yetishishga va yurtimizning gullab-yashnashiga o'z hissizimni qo'shishiga burchlidirmiz.

Mashhuraxon TOHIROVA,
Toshkent kimyo-teknologiya
Instituti talabasi

Sinab ko'ring

Onlayn to'garak mutolaa bilan

Onlayn darslar davomida o'quvchilarga berilgan vazifalarni nazorat qilish va mavzu yuzasidan paydo bo'lgan savollarga javob yo'llash, qo'shimcha ma'lumotlar berish maqsadida alohida telegram guruhi tashkil etdim. Bu guruhi yordamida o'quvchilarda masofadan ishlash ko'nikmasi shakllanadi. Yozgi ta'til davrida o'quvchilarning bo'sh vaqtlanidan unumli foydalanishga ko'maklashuvchi mazkur guruhda badiiy asarlarni o'rganish mashg'ulotlari olib borish mumkin.

O'rganishga mo'ljallangan asar bir hafta oldin e'lon qilinib, o'quvchilar haf-ta davomida asarni o'qib o'rganadilar. Mashg'ul bo'ladigan kuni asar yuzasidan turli topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar bajarilgach, o'quvchilarda savol bo'lsa, javob beriladi va keyingi o'rganiladigan asar nomi e'lon qilinadi. O'quvchilarning barchasida berilgan asar bo'lmassligi mumkin, shuning uchun elektron variyanti guruhga joylab boriladi. Masofadan turib badiiy asarlarni o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan usullarni sizlar bilan o'troqlashmoqchiman. Masalan, Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasini o'rganishda quyidagi usullardan foydal-nish mumkin.

"Savol-javob" usulida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Asar qahramoni — bola necha yoshda edi?
2. Asarda yana qaysi qahramonlar ishitirok etgan?
3. Bola nima uchun bobolari bilan yashardi?
4. Bola ko'proq nimalar bilan mashg'ul bo'lgan?
5. U nima uchun toshlarga nom qo'yan?
6. Bola yomon ko'radigan va yoqtiradigan o'simliklar qaysi?
7. U nega har doim oq kemani kuza-tadi?
8. Uning eng katta orzusi?
9. Shoxdor ona bug'u haqidagi ertakni bolaga kim ayтиb bergen?
10. Qaysi voqeordan so'ng bola odam-lardan bezib, uzoqlarga ketgisi keladi?

11. Asar qanday yakun topadi?
12. Qissadagi qaysi qahramon salbiy obraz? Nima uchun?
13. Sizda katta taassurot qoldirgan qah-ramon?

14. Agar siz adibning o'rnida bo'lga-ningizda asarni qanday yakunlar edingiz? Savollar har bir o'quvchiga alohida beriladi. Bu bilan javoblarni bir-biridan ko'chi-rishning oldi olinadi va asar bilan tanish-gan o'quvchini aniqlash oson bo'ladi.

"Ta'ref egasini toping" usulida asardan parchalar taqdirm qilinadi:

1. "U shu ondan portfelidan ajral-may qoldi. Shodligidan terisiga sig'may maqtanib, qorovulxonaning butun hovli-sini aylanib chiqdi".

2. "U qanday o'tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulimsira-dim, deb tashvishlanmas, birovlarning oldi-da obro'si to'kilishidan cho'chimasdi".

3. "O'rozqul uni haydab bo'pti, unday yuvosh odam bormi? Hech nimaga aralashmaydi, talashib-tortishmaydi. Biroq u qanchalik yuvosh, baqvut yigit bo'lmasin, yalqov, uyquni yaxshi ko'radi".

4. "Agar meni Xudo jazolamaganda, agar u mening besh go'dagimmi bag'rim dan yulib olmaganida, yolg'iz o'g'lim o'n sakkiz yoshida urushda o'qqa uchmagan-da, cholginam Tayg'ar suruv bilan bo'ron-

da qotib qolmaganda, men siz, o'rmon odamlarining orasida yurarmidim?".

"Davom ettir" usulida ham asarni o'rga-nishda juda qo'l keladi. O'quvchilardan biri qissani boshlab beradi, qolganlar galma-gal asar mazmunini davom ettiradi. Bu o'zin orqali asarlар o'rganilganda ma'lumotlari ovozli xabar shaklida yet-kazilsa yaxshi. Bunda vaqt ko'p sarfla-masligi o'quvchilarning zerikmasligini ta'minlaydi.

"Kim topqir" usulida o'quvchilar asar mazmunini qanchalik eslab qolgani testlar orqali tekshiriladi. Test tuzish o'quvchilar ga yuklatiladi.

- A) amplitudasi bilan B) chastotasi bilan
C) fazasi bilan D) davri bilan

27. Noma'lum qattiq jism turini aniqlash uchun shuddadan 1 kg olib unga 3800 J issiqlik miqdori berildi. Natijada uning temperaturasi 10 K ga o'zgardi. Bu jism quyidagi moddalarning qaysi biridan tayyorlanan bo'lishi mumkin?

- A) rux B) temir C) oltin D) mis

28. Botiq ko'zguning egrilik radiusi 24 cm . Uning fokus masofasini (cm) aniqlang.

- A) 48 B) 12 C) 6 D) 24

29. Garmonik tebranayotgan jismning maksimal tezligi 5 m/s , siklik chastotasi 20 rad/s . Tebranish amplitudasi (m) nimaga teng?

- A) 100 B) 5 C) 4 D) 0,25

30. Eritmada mis ionlari (Cu^{2+}) bor. Katod orqali 100 ta elementar zaryad o'tsa, katoda nechta mis atomi ajralib chiqadi?

- A) 25 B) 50 C) 200 D) 100

“Ma'rifat” repetitorি

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mayzulashtirilgan testlarning 32-variante

ONA TILI

(10-sinf: I, II qismlar)

1. "Murshid" so'ziga qaysi javobda to'g'ri izoh berilgan?

A) tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustoz

B) pir yoki eshon(murshid)ga qo'l berib, so'fiylik yo'liga kirgan shaxs

C) islom dini tarqalgan mamlakatlarda, avvalo, bilimdon kishilarga, so'ngra ulamo va faqihlarga berilgan nom

D) muqaddas joylarning mutasaddisi

2. Qaysi javobdag'i so'zlashuv uslubiga xos nutq-da shaxsga nisbatan salbiy munosabat ifodalangan?

A) Yo'q, yo'q, ko'taring! Tez kasalxonaga oborish kerak bumi! – dedi ikkinchisi.

B) Ho', men o'qigan hikoyang bor edi-ku, opkel, bosamiz.

C) Hoy bolam, manavini bir simir. Ichginang uzilib ham ketgandir sanginani. Ol, ol, xolang qoqindiq.

D) Hoy, Sanobar, o'zizzi ja bilimdon sanavorasizki... Nima, Qo'ldoshxo'ja? Yomon bo'lsin, deptimi?

3. Ilmiy uslubga xos til birlikkalrini aniqlang.

A) buyuraman, tashkil etilsin

B) deyiladi, ataladi

C) qatnashdilar, so'ragan ekansiz

D) dunyoga keldi, tashrif buyurdi

4. Qaysi gapda ham qaratqich kelishi, ham tushum kelishi qo'shimchasini olgan so'zlar ishtirot etgan?

A) Qo'lida stakan, piyola ushlagan bemorlar suv ichgani buloq tomonga ketishyapti.

B) Bog'ingiz katta hovliga qo'shiladi, akaxonning topshirig'i shunday! – deya hukm qildi Yormat.

C) Biz shu yo'llar tizginin qo'lga olaroq... Yer kurrasin boshin tang'idi.

D) Omon bo'lsak, hademay Samarqand-u Farg'onalarha ham borib qolgaymiz!

5. Qaratqich kelishi qo'shimchasi bilan ma'nodosh bo'la oladigan chiqish kelishi qo'shimchasin olgan so'z qatnashgan gapni aniqlang.

A) Chollardan biri unga emas, jo'mragidan hovur chiqayotgan choynakka qarab gap boshladi.

B) Shunda u o'zining hozirgina daladan kelganini esladi.

C) Juvon qo'lidagi olmadan ustma-ust bir necha marta tishladi va chala chaynab yutdi.

D) Rais uka, sizni ko'rganimdan xursandman.

6. Fe'lning II shaxs mazmunini ifodalagan so'z ishtirot etgan gapni aniqlang.

A) O'zicha bir balolarni javraydimi-ye! Qochib ketging keladi.

B) E-e... kelsinlar, kelsinlar. Qadamlariga hasanot!

C) Xo'p, dedik-ku, opovsi, bitta gapdan qolsak o'libmizmi.

D) Chiroyli joylar ko'p, qarab to'ymaysan kishi.

7. Qaysi gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan so'z mantiqiy urg'u olgan?

A) O'g'il bekatda bir soatdan beri onasini kutardi.

B) Bekatda o'g'il onasini bir soatdan beri kutardi.

C) O'g'il onasini bir soatdan beri bekatda kutardi.

D) Bekatda onasini bir soatdan beri o'g'il kutardi.

8. Berilgan so'z birikmalaridan nechta badii uslubga xos?

sehri diyor, tajriba asosida, yillar armoni, zafar quchmoq, jinoi to'da, islohotlar samarasni, o'q ildiz, quyosil yurt, zimmasiga yuklatilmoq

A) oltitasi

B) beshtasi

C) to'rttasi

D) uchtasi

9. Timsohlar qimmatbaho po'sti va go'shti uchun ovlanadi.

Ushbu gapda tagiga chizilgan so'z bilan qaysi terminni almashtirish lozim?

- A) qobig'i B) po'stlog'i
C) qatlami D) terisi

10. Badiiy uslubga xos bo'lmagan hukmni aniqlang.

A) Badiiy uslubda muallif asarning go'yaviy mazmuni va o'z maqsadidan kelib chiqib turli uslub unsurlarini qorishiq holda qo'llashi mumkin.

B) Badiiy uslubning asosiy xususiyati – bo'yoq dor til birliklaridan, ko'chma ma'noli ifodalardan foydalanshing ustuvorligi.

C) Badiiy uslub maxsus terminlar yordamida fanga doir fikrlarni bayon etishga mo'ljallangan. Murakkab jumlalar, kirish va kiritmali qurilmalar ko'p qo'llaniladi.

D) Badiiy uslubda jumlalarning qisqargan shakli, ritorik so'roq gaplar, yig'iq va to'liqsiz, bo'laklar o'rniga almashtigan gaplar cheklanmagani holda qo'llanadi.

11. Ushbu rasm asosida tayyorlanadigan matn qaysi uslubga xos nutq shaklida yoziladi?

- A) rasmiy B) ilmiy
C) publisistik D) badiiy

12. Bir olim shunday degan ekan:

– Nodonga nodonligi tufayli til tekkiza ko'rma!
Aks holda sendan ibrat olib, seni ... o'rnida ko'radi.
("Rivoyatlar"dan)

Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'yib gap mazmunini to'ldiring.

- A) raqib B) hasadgo'y
C) bilimdon D) oqil

13. Zormanda, marketing, ariza, aytmoq, ishonch bildirmoq, shartnomalar, bobillamoq, shapaloq, vay-samoq, reklama, barkamol, boy bo'lgur, bolapaqir, savil, himmatli

Qaysi uslubga xos bo'lgan so'zlar miqdori boshqalariga nisbatan ko'p?

- A) ilmiy B) rasmiy
C) so'zlashuv D) badiiy

14. O'zbek tili zaxirasi miqdori to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) taxminan 1100000–1300000 atrofida
B) taxminan 1400000–1600000 atrofida
C) taxminan 1500000–1600000 atrofida
D) taxminan 1600000–1800000 atrofida

15. Rasmiy ish hujjatlari haqida berilgan to'g'ri hukmni belgilang.

A) Rasmiy ish hujjatlari qat'iy qolip asosida yozilaydi.

B) Rasmiy ish hujjatlari erkin, ijodiy yondashish mumkin emas.

C) Shaxsning nutqiy madaniyati qat'iy qoliplarga roya qilishi bilan belgilanmaydi.

D) Rasmiy uslub boshqa uslub janrlaridan uncha farq qilmaydi.

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 11-sinf "Ona tili" darsligining I qismida berilgan mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularini qunt bilan o'qing va bilimizingizni mustahkamlang.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi 23-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MATEMATIKA

(6–11-sinf materiallari bo'yicha)

16. 1,2,3,4 raqamlari yordamida, ularni takrorlasdan yozilgan eng katta to'rt xonali va eng kichik to'rt xonali sonlar ayirmasini toping.

A) 3086 B) 3036 C) 3326 D) 3087

17. Sharning sirti nima deb ataladi?

- A) doira B) aylana C) sfera D) sektor

18. 4 m³ necha litrga teng?

- A) 4 litr B) 40 litr C) 400 litr D) 4000 litr


19. O'chlamlari 20 sm; 4 m; 4 dm bo'lgan idishga necha litr suv ketadi?

- A) 32 litr B) 320 litr C) 3200 litr D) 3,2 litr

20. 8.1-(4c-3)² ifodani ko'paytuvchilarga ajrating.

- A) 4(3-2c)(3+2c) B) 8(3-c)(3+2c)
C) 8(c-3)(3+2c) D) 4(3-c)(3+2c)

21. Quyidagi shakkaldan qaysi biri konus?



- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

22. 2¹⁰¹ sonining oxirgi raqamini toping.

- A) 2 B) 4 C) 0 D) 6

23. Tengsizlik nechta tub yechimga ega:

- 17 < x ≤ 29.
A) 25 B) 24 C) 5 D) 6


24. $\frac{36}{90}$ kasrga teng qisqarmas kasrni toping.

- A) $\frac{4}{10}$ B) $\frac{2}{5}$ C) $\frac{3}{8}$ D) $\frac{18}{45}$

25. Koordinata o'qida A(-18) va B(-12) nuqtalar orasidagi masofani toping.

- A) 5 B) 22 C) 6 D) 21

26. Ombordagi ozuqa 6 ta qo'yga 24 kunga yetaidi. Shu ozuqa 4 ta qo'yga necha kunga yetadi?



- A) 27 kunga B) 16 kunga
C) 36 kunga D) 16 kunga

27. - 43 dan 3 gacha bo'lgan barcha butun sonlarning ko'paytmasi nechaga teng.

- A) - 4342526365 B) 635267389
C) -838363652 D) 0

28. Rasmida tasvirlangan parallelepiped ichiga o'pi bilan yana nechta xuddi shunday kub joylashtirish mumkin?

- A) 60 B) 18 C) 20 D) 42

29. Tomonlari 3 sm va 27 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak bilan tengdosh kvadrat perimetreni toping.

- A) 18 B) 27 C) 36 D) 60

30. Xarita mashtabi 1:10000000 bo'lsa, chizmadaagi 5 sm.ga necha km masofa to'g'ri keladi?

- A) 50000 B) 5000 C) 500 D) 50

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 31-variante

Keyingi sonda "Mulohazalar" mavzusiga oid testlar beriladi, bunda testlar 6–8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,

G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

11-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligining 5–9-mavzulari asosida tuzilgan test savollari

31. O'zbekistonda kichik xususiyashtirish nechanchi yilda tugallangan?

- A) 1993-yil B) 1994-yil
C) 1995-yil D) 1996-yil

32. Qaysi yillarda O'zbekiston sobiq Ittifoqdan qolgan rubl zonasida bo'lib turgan?

- A) 1991–1992-yillar B) 1991–1993-yillar
C) 1991–1994-yillar D) 1992–1994-yillar

33. O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritilgan sanani belgilang.

- A) 1993-yil 1-noyabr B) 1992-yil 1-yanvar
C) 1993-yil 16-noyabr D) 1992-yil 18-oktobr

34. O'zbekistonning quyidagi qaysi shaharlarida xalqaro aeroportlar faoliyat ko'rsatmoqda?

- A) Toshkent, Namangan B) Samarqand, Nukus
C) Buxoro, Nukus D) Urganch, Samarqand

35. Markazi Osiyo hududidagi birinchi avtomobil zavodi nechanchi yili ishga tushirilgan?

- A) 1992-yilda B) 1993-yilda
C) 1996-yilda D) 1999-yilda

36. Quyidagi tadbirdan qaysi biri O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlanishining ikkinchi bosqichida amalga oshirilmagan?

- A) kichik mulkdorlar sinfi shakkantirildi
B) keng qamrovli xususiyashtirish amalga oshirildi
C) iqtisodiyot sohalariga xususiy kapitalni jalg qilish imkoniyatlari kengaytirildi
D) dastlabki xususiy tijorat banklari va bankdan tashqari moliya institutlari (kredit uyushmalari) o'z faoliyatini boshladi

37. 2018-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda nechta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda?

- A) 8 ta B) 10 ta C) 12 ta D) 14 ta

38. O'zbekistonda 2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, aholisi 3 mln.dan oshgan hududlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Farg'ona, Samarqand
B) Toshkent, Qashqadaryo
C) Andijon, Namangan
D) Surxondaryo, Farg'ona

39. O'zbekistonda nechanchi yil "Sihat-salomatlik yili" deb e'lon qilingan?

- A) 2000-yil B) 2004-yil
C) 2005-yil D) 2006-yil

40. 2006-yilda quyidagi qaysi jamg'arma mablag'lari hisobidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga, faxriylarning davolanish maskanlariga, "Saxovat" va "Muruvvat" uylariga dori-darmor vositalari yetkazib berilgan?

- A) "Sog'lom avlod uchun" B) "Nuroniy"
C) "Ekasan" D) "Fond Forum"

41. 2015-yilga kelib Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilayotgan bolalarning necha foizi mutlaq sog'lom deya tanolingoqda?

- A) 89 foizi B) 92 foizi
C) 95 foizi D) 98 foizi

42. O'zbekistonda aholining o'rtacha umr ko'rish umumiy ko'rsatkichi 1990-yilda necha yoshni tashkil etgan?

- A) 64 yosh B) 67 yosh
C) 69 yosh D) 71 yosh

43. O'zbekistonda 2009–2016-yillarda qishloq joylarida qancha shinam namunaviy uy-joy bunyod etilgan?

- A) 100 mingdan ortiq B) 70 mingga yaqin
D) 150 mingga yaqin D) 200 mingdan ortiq

44. Nechanchi yildan boshlab O'zbekistonda poytaxt va viloyatlarda uy-joyga ega bo'limaganlar, harbiy xizmatchilar, yosh olimlar va ichki ishlar xodimlari uchun imtiyozi uy-joylar qurilib, egalariga topshirilmoqda?

- A) 2015-yil B) 2016-yil
C) 2017-yil D) 2018-yil

45. O'zbekistonda 2002-yil fevraldan boshlab sug'urta tashkilotlari qancha muddatga daromad solig'idan ozod qilingan?

- A) bir yil B) uch yil C) besh yil D) to'rt yil

Jalol BOLTAYEV,

Urganch davlat universiteti talabasi, repetitor

32-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A	D	B	C	A	B	A	C	D	C	B	A	C	B	B
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
D	C	D	B	B	D	A	A	B	C	C	D	D	C	C
TARIX														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
B	B	A	D	C	A	D	A	C	B	B	B	B	C	B

Izhor

Chegara bilmas onalik mehri...

Har yili mushugimiz bolalaydi, oy kuni yaqinlashishini bilgan ona mushuk quay joy qidirishga tushadi, goh somonxonaga boradi, bo'lmaydi, qaytib kelib, yana alanglaydi. Ona-da, bolasini dunyoga keltirish uchun quay joy qidiradi.

Bir kuni ishdan kelsam, Bolaligim ko'p bolalar qatori ko'cha mushugimiz yo'q. Keyin yushmanlar bilan esmidan chiqibdi, kechga yotaman deb divanga yonboshlasam, yumsquo narsaga oyog'im tegdi, ha, demak, bolalabdi. Yarim kecha uyqum qochdi. Bitta yolg'iz mushuk bolalari uchun shuncha mashaqqat chekib, xavfsiz joy qidirsaya. Demak, onalik mehri hamma jonzotlarda bor ekan. Bolalik mehri ham bormikan-a?

Ikki yil avval amakimning xotini ikki bolasi bilan ketib qoldi, turmushi bo'lmasdi, bolalari baribir onasi bilan qolishni xohlashdi. Ona bolasiga faqat baxtni ravo ko'radi. Butun umri davomida onalik mehrini ko'rmay, zor o'tayotganlar qancha, shukur, baxtimizga ota-onamiz yonimizda.

Bolaligim ko'p bolalar qatori ko'cha changitib, yer tepib o'tgan deb gapirsam sizini aldagani bo'laman, sababi bolalikdan otam juda qattiqko'l, oilada doimiy bir tartib bo'lishi tarafdbor bo'lgan, hozir ham otamning birgina qarashi kifoya, hamma o'z ishini bilib qilib ketaveradi, onam esa aksi, meni erkalatgani-erkalatgan. Hozirgacha dadamga aytolmaydigan gaplarimizni onam orqali aytamiz, dadam ham bunga o'rganib qolgan.

Onalar kasal bo'lmisin. Onamni aya deyman. Ayam doim onalarga dard bermasin deydi, nega Ollohu suygan bandalariga dard beradi desam, yo'q qu'syang-chi, deb koyib beradi. Keyin bilsam, onalar dard chekishdan ko'ra, bolalariga o'z qu'shi bilan non, osh qilib berishni yaxshi ko'rarkan. Ona kasal

haqida kuylanadi. O'zim shoir bo'lganim uchun do'stlar sira qo'yamidi tog'ga bo'ramiz deb, mayli deb bordim, endi ijod ahli bunday joylarda rosa ilhomni keladi:

*Yaproqlarga cho'milgan yoshlik
Onlarimga qaytsam qaniyi,
Onam yopgan issiq kulchan
Ko'zlarimga surtsam qaniyi...*

Onam doim men uchun kulcha yopadi, katta bo'lsam ham menga atalgan kulcha sevimli tandirda yopiladi. Men balandparvoz gaplarni bilmayman. O'qishga tayyorlanib yurgan paytalarim, haftada bir marta uyg'a kelardim. Shunda onam qaytishimga bir tandir non yopib, sumkamga solib qo'yaverardi. Nima qilasiz ovora bo'lib, o'sha yerdan pulga sotib olaveramiz desam ham, qo'yamidi. Sheriklarim ham onamning nonlarini yaxshi ko'rib qolgan edi, ona yopgan non boshqacha-da...

Jamoliddin POLVONOV,
Beshariq tumanidagi
45-maktab yoshlar yetakchisi, ijodkor

Sovuq qishning zahri tugab, asta-sekin yerlardan unib chiqayotgan o't-o'lanlar, daraxt shoxlarini yuvib yerga chak-chak tomib turgan yong'ir tomchilar, ariqlardan oqayotgan suvning jimir-jimiri, qorlar erimasdan turib unib chiqqan shoshqaloq boychechaklar — BAHOR!

Nazira bomdod namozini o'qib bo'lgach, sigir sog'ish uchun og'il-xonaga bordi. Ichkariga kirishi bilan loy yopishdi. So'ngra oyog'ini qoqib-qoqib qo'lidagi chelagini og'il-xonaning shiftida osilib turgan simga ilib qo'ydi (bo'lmasa o'yinqaroq buzoqcha shataloq otib chelagini ag'darib ketadi-da). Keyin buzoqning ipini olib, uni bog'lash uchun sekingina yoniga bordi. Buzoqcha egasini payqab qoldi shekilli, xuddi onasining sutini tortib olishini bilgandek, epchillik bilan undan qochib qolmoqchi bo'ldi. Nazira uning o'ng qulog'idan mahkam ushlab, qo'lidagi ipga buzoqchani bog'ladi va xuddi u tushunadiganek buzoq bilan gaplasha boshladi:

— Sen jonivorgina sira ham onanga tormading-a. Onang temsa tebranmaydigan jonivor. Yog'liqning yarim chelak sut beradi. Senga o'xshab qizg'anchiq emas.

Naziraning bu gaplari buzog'iga yoqmadni shekilli, og'zidan ko'pig'i oqib, ingichka ovoz bilan "mo'-o'-o'" deb qo'ydi.

Shu payt Naziraning qulog'iga erining baqirgan ovozi eshitildi:

— Tur-ey joyingdan, anovining ovozini o'chir. Senlarni dastindingtininchlik bormi o'zi bu uyda!?

— Xo'p, dada, hozir, — dedi Bibisora yig'lamsiragan ovozda.

— Anovi ahmoq oying qani?!

— Oyim... oyim ahmoq emas, dada.

— Qachondan beri otaga gap qaytaradigan bo'lib qolding, tiling kesilgur? Ha-a, bu gaplarni senga oyijoning o'rgatgandir-da!

....

— Gapir, tilingni yutganmisan?

— Nimaga unday deysiz, dada? Oyim o'rgatmadni bu gaplarni, o'rgatmaydi ham.

Bibisora yoshgina qalbidagi bor dard-u hasratini bugun tiliga chiqardi, bor alamini otasidan oldi. U uyiда bo'ladigan har kungi janjallardan bezib qolgan. Esini tanibdiki, biror marta otasiga tik qaramasdi. Ammo negadir bugun unga otasining aytgan gaplari shu qadar alamlı tuyuldi, har bir aytgan so'zini padarining ko'zlariga boqib so'zladi.

— Nega, dada? Nimaga bizni bunchalar yomon ko'rasiz? Singillarim bilan mening aybimiz qiz bo'lib tug'ilganimizmi? Onam bechora har kuni ichib kelib, kaltaklasangiz ham biz uchun chidab yashayapti. Xudo sizga o'g'il farzand... — dedi-yu tushgan tarsakidan yerga yiqildi. Ostonada qo'lida sut sog'ilgan chelakni ushlab turgan Nazira uni shu yerga qo'yib, Bibisoran bag'riga bosdi. So'ng eriga yuzlanib:

— Urmang ularni! Mayli, meniuring, so'king, teping, lekin sizdan iltimos, bolalarga qo'lingizni tekkizmang. Nazira bu gaplarni go'yoki begonaga aytayotgandek bo'ldi.

— O'v-v, menga qara, — deb xotinining jag'idan mahkam ushladi.

Nazira

Agar seni, manavi tekinxo'rleringni yana shu yerda... — dedi-yu uyog'ini gapirmsandan bo'sag'ada turgan yarim chelak sutni bir tepib ag'darib, tashqari ga chiqib ketди.

Nazira Bibisoraning, keyin o'zing ko'zidagi yoshni artib, beshikdagi singlisini tebratib o'tirgan Layloning yoniga bordi. Uning boshini siladi va peshonadan o'pib qo'ydi. So'ng endigina besh oylik bo'lgan qizalog'i Sabrinani ovqatlantrish uchun beshikning yopinchig'ini ko'tardi-yu qo'rqnidan baqirib yubordi:

— Bola-am, qizalog'im, senga nima bo'ldi! Meni qo'rqtma, jon qizim!

— deb tezda Sabrinani beshikdan yechi boshladi. Xuddi shu payt darvozating eshigini ochgan Akmal toxinining ovozini eshitib, joyida to'xtab qoldi. "Yana nimani boshladi ekan bular. Hoy-nahoy kichkinasining kasali tutib qolgandirda. Jonga tegdi-ku. Yana shunga pul sarflash kerak. Qachon qutulaman bulardan, qachon?", degan fikrlar o'tdi uning xayolidan.

Borey, bilganlaringni qilmaysanmi. Senlarga qachongacha chidayman, — deya darvozadan chiqmoqchi edi, toxinining dod-voysi kuchaygach, orqasiga qaytdi. Sekin-sekin yurib borib, zinadan ohista chiqdidi. Eshikni oqib, ichkariga kirishi bilan toxinining qo'lidagi jajjigina Sabrinaning avholidan qo'rqiб ketdi. Uning qorachadan kelgan yuzchalar shu qadar sarg'a-yib ketgan, onasining qo'lida jonsizmi yoki hushsizmi yotardi. Akmal eshikka suyangancha qizining tug'ilishini intiqlik bilan kutgan damlarini esladi.

Nazira Sabrinaga homilador bo'lgan payt ich-ichidan quvongan, ikki qizidan keyin o'g'il tug'iladi deb o'ylagan edi. Homilasi uch oylik bo'lganda avvaliga biroz tobi qochdi. Kechga yaqin uning ahvoli battar og'irlashib qoldi. Akmal-zudlik bilan tez yordam chaqirib, uni kasalxonaga olib bordi. Shifikorlar Nazirani tekshirib bo'lishgach Akmalga:

— Xavotir olmang. Bo'lajak qizining ham, xotiningiz ham yaxshi. Faqat bundan so'ng og'ir narsalarni ko'tarmasini. Uni ehtiyoq qiling, — deyishdi.

Akmal doktorga qarab:

— Qiz deysizmi? — deb so'radi.

— Ha, Xudo xohlasa qizli bo'lasiz.

"Qizli bo'lasiz". Akmalga bu gap shunchalar sovuq eshitildiki, kasalxonadan qanday qilib chiqib ketganini ham sezmadni. Tashqariga chiqqach, "yana qizmi?" degan savolni o'ziga berdi. Tarvuzi qo'ltig'idan tushib, ayni damda palatada yotgan toxinini ham, tug'ilajak qizini ham eslashni xohlamasdi. Bor orzu-umidli puchga chiqdi.

Keyin esa sal nariroqdagi restoranga bordi. Eng chekkadagi stolga borib o'tirgach, ofitsiantni chaqirdi:

— Menga eng o'tkiridan bir shisha olib kel.

— Yana biror narsa kerakmi?

— Ha, xuddi shunisidan yana bir shisha keltir.

— Hozir, besh daqqa.

O'sha kuni Akmal bor alamini ichkilidkan oldi. Ichidagi dardini u bilan baham ko'rdi. Avvaliga ora-sirada ichib kelardi. Keyinchalik esa odatiga aylandi. Bu ham yetmaganday homilador xotinini bolalarining yonida ayamay do'pposlar, qizlarini ham arzimagan sabablar bilan urishadigan bo'lib qoldi. Albatta, bu janjallar Naziraning tug'ilajak farzandiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sabrina 8 oylik bo'lishiga ozgina qolganda vaqtidan oldin tug'ildi. U judayam nimjon, tez-tez kasal bo'lardi. Shu-shu ularning oilasida bechora qiz dunyoga kelgandan so'ng Akmalning qilayotgan urush-janjallari ortsu ortdiki, kamaymadi.

Kecha kechqurun Sabrinaning isitmasi ko'tarilib ketdi. Bola bechora kechasi bilan tinmay yig'ladi. Onasi uni ovutish uchun goh sut berar, goh beshikdan yechib olib qo'lida silkitar, yana beshikka solib alla aytardi. Eriga aytay desa, hozir hech narsani sezmaydi, bo'kib ichgan. Nihoyat qizalog'iuning isitmasi tushgandek bo'ldi. Tong otishiga 2 soat qolganda uyquga ketdi...

Ayni payt Nazira ham, Akmal ham bo'lib o'tgan voqealarni eslar ekan Nazira hozir hech narsani sezmas, faqat qizining mittigina jonsiz tanasini bag'rida mahkam tutib turardi. U ostona turgan eriga Sabrinaning qotiliga qaraganday shunday vajohat bilan qaradiki, Akmal beorzorgina toxinini hali hech qachon bu ahvolda ko'rma-gan edi. U toxinidan ko'zlarini olib qochdi-ye, tez yordam chaqirish uchun tashqariga chiqib ketdi. Ammo endi kech edi. Afsuski, Sabrinaning hali dunyoni ko'rishga, undagi oq-u qorani ajratishga ulgurmagan mittigina yurakchasi allaqachon to'xtab bo'lgandi.

Tushga yaqin ularning hovlisiga qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lari yig'ildi. Qabristondagi qabrlarning yonida yana bir kichkinagini qabr paydo bo'ldi...

Nazira chidolmadi. Bu uyning har bir burchagidan Sabrinaning yig'isi eshitilib, unga sira tinchlik bermandi. Keyin Bibisora va Layloni olib, uzoq-uzoqlarga yo'l oldi. Uni oldinda qanday sinovlar yoki baxtli kunlar kutilib turganini o'zi ham bilmasdidi. Nazira erining bergan azoblarini, ko'rgan qiyinchiliklarini unutish uchun ham bu yerlardan uzoqroqqa ketdi.

Akmal esa hamon to'rt devor orasida bitta-yu bitta sirdoshi bo'lib qolgan shisha bilan birga. U ko'chalarga chiqmайдиган, odamlar bilan gaplashmayдиган, ko'рган одам undan jirkanadigan va achinadigan ahvolga tushib qolgandi.

Hovlida onasining sutidan to'yan buzoqcha, shamol uchirib darvozaning oldiga olib borib tashlagan chelakka qarab "mo'-o'-o'" deb qo'ydi...



Sabr qilgin

Og'ir tashvish tushsa boshingga, G'amlar og'u salsa oshingga, G'alamislari tegsa g'ashingga, Sabr qilgin, bari o'tadi!

Do'st-u yoring tashlab ketganda, Goho haq so'z boshga yetganda, Taqdir og'ir qismat bitganda, Sabr qilgin, bari o'tadi!

Dard og'rita shirin joningni, Alam ko'pirtisa qoningni, Hech kim olmasa gar yoningni, Sabr qilgin, bari o'tadi!

Hasad uvol qilsa so'zlarin, Qayg'u egallasa yuzlaring, Namlanganda xumor ko'zlarin, Sabr qilgin, bari o'tadi!

Tushkun xayol qamrab olganda, Aqling hayron, ojiz qolganda, Savollardan o'ya tolganda, Sabr qilgin, bari o'tadi!



Til

Qo'sh qafaslar ichra tursa ham, Sayragaydir bu suyaksiz til. Yomon so'zlar gohi-gohida, Ozoridan og'rigaydir dil.

Shuning uchun tilning yo'lini, Ikki soqchi to'sib turadi. Agar ular yo'lin to'smasa, Inson tili bilan yuradi.

Tanning jarohati bitsa ham, Dil yarasi aslo bitmaydi. Qancha uzoq yillar o'tsa ham, Ko'nglingizdan aslo ketmaydi.

Duo, kalom yangrasin tildan, Yaxshi so'zlar aytilgay dildan. E'riborli bo'ling har so'zga, Boshga balo ham kelgay tildan.

Tilda doim bo'lsin shirin so'z, Yuraklardan chiqsin har kalom. Kattami u kichik, barchaga Tilingizdan yangrasin Salom.

Saodat QURBONOVA, Nishon tumanidagi 18-maktab o'qituvchisi

Talgın

Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil - rangdagi ramziyliklar

Navoiy ijodi insonni yuksaklikka ko'taradi, muhabbatga chorlaydi. Shu ma'noda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti talabaları Navoyni kengroq o'rganish uchun joriy yildan boshlab O'zbek adabiyoti tarixi fani qo'yildi. Bu bo'lg'usi rassomlarimiz ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tayin.

She'riy san'at bilan rangtasvir uyg'unligi Navoiy asarlarida serob. Jumladan, uning g'azallarida qora rang ko'p uchraydi:

*Mening baxtim yuzi g'am kojidin ul kun qaro bo 'ldi,
Ki ko'nglim ul ko'zi-qoshi qarog'a mubtalo bo 'ldi.*

Baytdagi g'amdan kunning qora bo'lishi mubolag'a qilingan bo'lsa-da "qora kun"ni birkma shaklida qarasak, o'sha oshiqlik balosidan yetgan g'am ramzini ifodalab kelyapti.

*Bu toza tugankim g'amidin ko'nglim arodur,
Ko'nglim qushi g'am dashti aro bag'ri qarodur.*

Yoki

*Ro'zg'orim qildi mazlum ohining dudi qaro,
Ko'rma zolim xilvatining ko'rgasin sanjoblar.*

Mazkr baytdagi "qaro" sifatlovchisi g'am-u sitamning umumlashma ramziy obrazidir. Yoqubjon Is'hoqov e'tirof etganiday, ta'rif-u tavsif xarakteridagi g'azallarning bir guruhida wasf bilan kechinma yonma-yon boradi. Bunday she'rlarda ramziylik kuchli bo'lib, ma'shuqa libosining rangi she'lda shu rang bilan bog'liq kayfiyat tug'dirishi. Masalan, Navoiyning ilk lirikasidagi quyidagi baytga diqqat qiling:

*Qaro dastor to chirmadi mohim,
Boshing'a chirmanibdru dudi ohim.*

Yoki shoiring yigitlik davridagi yozgan quyidagi baytiga e'tibor bering:

*Ne tong sorig' yuzumda ashki rangin,
Ki kiymish sabzi talx ul sabzi shirin.*

Keksalik davrida esa kechinmalar turfalogi sabab rang bilan bog'liq ramziylik kuchayganligini ko'rish mumkin:

*Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig', yashil,
Shu'layi ohim chiqar har yon qizil, sorig', yashil.*

So'nggi baytdagi ranglar ramziyligi xususida Yoqubjon Is'hoqov ma'shuqa libosining rangi she'lda shu rang bilan bog'liq kayfiyat tug'dirishini e'tirof etgan bo'lsa, Jamol Kamol uni "haqiqat manzarasi" deb talqin qiladi.

Navoiy devonida har bir rangga doir bir necha g'azal mavjud bo'lib, qo'llanish usuliga ko'ra Y.Is'hoqov ularni uthu guruhga bo'ladi:

1. Muayyan bir holatni bo'rttirib tasvirlash uchun. Bunda asar qahramoni kechinmalarini to'g'ridan-to'g'ri turli poetik vositalar orqali bayon qilib, g'azalda tasvir boshdan oxir bir rangga bog'liq holda boradi. Masalan:

*Tifllar toshini jismim qildi sartosar qaro,
Bo 'ldi savdog'a savdoyi a'zam ondin har qaro.*

2. Bir qator g'azallar real vogelikda yaratilgan, ularda manzarali tasvir asosiy o'ren egallaydi, ammo she'rdagi ranglar ramziylik kasb etadi:



*Har xazon bargi erur zoriki dahr ozoridin,
Sarg'ayib mendek tunlar ayru sihi qad yordin.*

3. Boshqa guruh g'azallarda esa ma'shuqa g'azal boshidanoq biror rangdagi libosda namoyon bo'jadi va har bir rang ramziy ravishda lirik qahramonning ma'sum holatini ifodalaydi:

*Qaro dastor to chirmadi mohim,
Boshing'a chirmashtib dudi ohim.
Ancha hamrang o'lay deb motamimen,
Qarorg'on ro'zg'orim bor guvohim...
Ko'zimdir tiyra ya'ni, ey Navoiy,
Qaro, ko'k ketdi motam ichra mohim.*

Alisher Navoiy XV-XVII asrlar o'zbek lirikasida keng qo'llanilgan va asosan xalqning e'tiqodi-yu tasavvuriga asoslangan rang bilan bog'liq ramzlarga ko'proq murojaat etgan. Navoiydan so'ng bu an'ana Bobur, Mashrab, Gulxaniy, Maximur, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Furqat kabi shoirlar ijodida izchil davom ettirildi.

Nasiba JUMATOVA,
filologiya fanlari nomzodi,
MRDI "O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasini o'qituvchisi

Shukurov Akobirxon Ibodullo o'g'lining 02.00.05 — Sellyuloza va sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish kinyosi va texnologiyasi (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Dorivor ko'z plynokalarini oflinshi, tuzilishi, xususiyati va ishlab chiqarish texnologiyasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Polimerlar kinyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-iyun kuni saat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-b"uy.
Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

Pulatov Abrorjon Masutovichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Diniylikning siyosiyashuvi va uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-iyun kuni saat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100174; Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-54-17; e-mail: devonxona@nuu.uz

Niyazova Naima Abdullajonovnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasini va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Integratsiyalashgan axborot-ta'lim muhitida bo'ljak kasb ta'limi o'gituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-iyun kuni saat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

Norqulov Bahodir Musulmanovichning 05.09.07 — Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Suv tashlash inshootlarida ogim energiyasini so'ndirish usullari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengashining 2021-yil 11-iyun kuni saat 14:00 dagi onlays (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.
Tel/faks: (71) 237-22-09; 237-38-79; e-mail: admin@tiiame.uz

Bayreve Almagul Qurbanovnaning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda vakkillik hokimiyati va fuqarolik jamiyatini institutlarining samarali hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-iyun kuni saat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100174; Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti 511-xonada o'tkaziladi.

Tel/faks: (71) 246-54-17; e-mail: devonxona@nuu.uz

O'zbekiston daylat jismoniy tarbiya instituti tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2017-yil iyun oyidagi qaroriga asosan Sattarov Qahhor Nye'matjonovichga berilgan V № 903251 raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi Xalqobod pedagogik ijtimoiy kasb-hunar kolleji tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2010-yil 14-iyundagi qaroriga asosan Sharapova Aqila Xalil qiziga berilgan K № 0095420 raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi faoliyatini

TUGATILADI.

Da'vo va arizalar Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 13-mavze, 49- "b" uy manzilida e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy ichida qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar:

(71) 202-13-93, 223-16-31.

Bolalik hayitlari

Boshqalarning enasini bilmayman, lekin mening enam hayitni boshqacha kutib olardi. Biror hayitda biz – o'g'il-u qizlar yangi libossiz qolmasdik. Hayitdan ancha oldin enam qizlarga bir xil satindan ko'yak tikishni boshilar, bunday paytikuv mashinamiz avvonda g'irillagan g'irillagan edi. Enam barcha tikishlarini tamomlab, keyin aka-ukalarimga yashil shoyidan tikilgan belbog'ni kashtalamoqqa tutinardi. Ipaklar saqlanadigan kichkinagini kadicha yonida, ertalabdan kechgacha ish bilan mashg'ul bo'lardi.

Menga enam tikkan chit ko'yaklarim juda yoqardi. Ular hech qachon katta ham, kichik ham kelmagan. Boshqalar ham nazarimda shunday fikrda edi. Buni hayit kuni opa-singillarim, aka-ukalarimning ko'zlaridagi chaqindan anglardim. Hamma shodumon edi.

Hayit oldidan hovlimiz yanada yashnab ketardi. Hovlining har bir qarich yeri qirtishlab tozalanib, qozonlar kuydirilib, chovgumlar qumda yaraqlatilar, ro'zg'ordagi choynak-piyola-yu ko-sa-tovoqlar kullab tozalanar, oppoq qorday qilib dor-dor kir yuvilar edi. U paytlar qishloqqa elektr kelmagan, shundan ham enam olovdoniga cho'g' solib qizdiriladi. Ganzil-zambil temir dazmollimizda ertalabdan-kechgacha dazmol bosardi.

Faqat otamning kiyimlarini dazmollash boshqacharoq bo'lardi. Uning qorday oppoq ukraincha shohi ko'yaklar, kostym-shimlarini maktab yonida yashaydigan Esirgap aka dazmollardi. U paytlar hoziriday kiyimligi yo'q ekanmi, dazmollangan kiyimlarni Esirgap aka o'ng qo'liga tashlab, ustiga doka yopib olib kelar, yo'lda-yuzda uchrangan odam ko'rishay desa:

– Qoch, qoch, Omon akamning kiyimiga chang tushadi, – deb ethiytotlab keltirar, bu kiyimlar hamisha ohori to'kilmay tuyor turardi.

Qotma bo'lsa-da, odamlar hayiqadigan otam qordek oppoq liboslar, yaltillagan kostym-shimlarini kiyib bizni Alimardon bobomnikiga yetaklardi. Tog'dan keltirilgan asal, yong-oq-mayiz, Payshanbaning parvardasi, uvizday sap-sariq novrot solingen tugunni qo'lda ko'tarib olardik.

Enam pishirib bergen yeguliklarni ko'rgan bobom:

– Qo'li dard-ko'rmasin-da bolamming, qo'shsha qarigin-da ulim, – deb otamni duo qilar, enamni alqardi.

Bizning qishloq – Badaxshonda yutagi kunlari juda chiroyli udumlar amalga oshiriladi. Yo To'rtog'ayni, yo Loyqa, yo Madaniyat, yo Qo-tonboy qishloqlari tarafdan oq ot mingan, tizzasiga jajji sandiq qo'yib olgan, yangi olacha chopon kiygan suvoriyalar ko'riniq qolardi. Oqliqlarning kayfiyatini a'lo, ermakka xirgoyi qilar, yon-atrofqa tabassum bilan boqar edilar. Ular fotiha

qilingan qizlarga hayitlik olib kelishyapti. Santiqcha ichida kunjut, soch, rangli holva, Payshanba parvardasi, o'sma, xina, turli munchoqlar, oq shohi ro'mol bo'lardi. Qishloqning qora-qura bolakaylar suvoriyarning ortidan qiyqirib yugurishar, ular esa kulgancha bizga qarab qamchilarini silkip qo'yishardi. Ammo bu bolakaylar suvoriyning ortidan fotiha qilingan qiz yashaydigan xonadongacha ergashib kelishardi. Qizning onasi ularga ham hayitlikdan berganidan so'nggina uy-uylariga tarqab ketishardi.

Jiyaniga hayitlik kelishini bilgan amma-xolalar, yanga-yu chechalar erta sahardan to'planishar, pishir-kuydir, shodu-xurramlik kechgacha davom etardi. Bunday kunlari bo'lajak kelin hali tong otmasdan qayergadir, biron-bir dugonasinikiga g'oyib bo'lar, otasi, aka-ukalarining ko'ziga ko'rinishdan uyalar edi. O'sha kuni bu uydagi qaqir-ququr xur-sandchilikka u guvoh bo'limas, buni qattiq uyut sanashar edi. Qiz hayitlik olib kelgan suvoriy ketib, qarindosh-urug'lar tarqalib, dasturxonlar yig'ilib, qosh qoraygachgina hovliva iymanli, hech kimga ko'rinnay xuddi gunohkorday kirib kelar va otasi, aka-ukalaridan berkingancha ichkari xonaga kirib ketardi.

Hayit kuni turli ajoyib marosimlar ham bo'lib o'tardi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning qorin sochiga ham aynan hayit kuni duk urirlardi.

Bizning qishloqda odat bo'lgan "Duk urdi" marosimining o'z tartib-taomili bor. Soch olinayotgan paytda oqsoqolning yelkasiga go'dakning momosi oq surp tashlaydi. Duk uruvchi bolakayning qorin sochidan bir tutamini yaxshi niyatlar aytib olib qo'yadi.

– Bismilloh rahmonir rohiy, polvon bo'sin, uloqchi bo'sin, umri uzoq bo'sin, ota-onali bo'sin, nevara-chevarali bo'sin...

Enam oilamizning har bir a'zosining qorin sochini ana shu taomil bo'yicha oldirtilgan, nevaralarga nisbatan ham bu udum qo'llanardi. Bola serfarzand bo'isin, degan niyatda qorin sochi mevali daraxt tagiga ko'milar, enam bu joyning tozaligiga alohida e'tibor bilan qarardilar.

– Bu daraxting oldiga har narsa tashlamanglar, – deb qo'yardi bizga.



Esimda, Oyimgul singlimming "Duk urdi" marosimiga uyimizada yaxshigina tayyorgarlik ko'rildi. Qishlog'imizdagi Ibdullahxon eshonga singlimming qorin sochini oldirishni otam bilan bamaslahat hal qilishgan. O'sha kuni bo'g'irsoqlar, non-u patirlar, qush tili pishirilgan. Yana bitta bolasining yaxshi kundan suyungan enam shiringina bo'lib turgan singlimmi osmonga otib kishtala qo'shiqlar aytgani hech xotiramdan ko'tarilmaydi:

*Kishtala enam, kishtala...
Qarchig'ayding bolasi,
Ichidadir olasi.
Shu bolam esana bo'lsa,
So'raba kelar xolasi.*

Singilcham erkalovga javoban qiyqiradi. Enam uni har osmonga otib suyganda shirindan-shirin tovush chiqaradi.

*Kishtala enam, kishtala...
Onovi boqqa kelibi,
Qaldirg'ochding galasi.
Shu bolamdi eslasin,
Yaxshi-ya, jomon-a bo'lsi.*

Men, ukam Shermat enamni qizg'anib satin ko'yaklarini etagidan tortqilaymiz. Enam bizga shunday chiroli kulib qo'yadi-da, yana singlimni erkashadha davom etadi:

*Kishtala enam, kishtala...
Peshonasi jorgillab,
Esana bo'sin og'asi.
Jelksida beshik bilan,
Kiriba kelar tog'asi.*

Oyimgulcha entikadi. Uning zavqqa to'la ko'zlar qisilib ketadi. Biz enamning bilaklariga osilamiz. Yana bizga juda chiroli tabassum hadya etadi enam.

*Kishtala enam, kishtala...
Shu bolamdi suyaydi,
Tovdana balana otasi.
Zar kovusha, zar ko'yak,
Oliba kelar otasi.*

Enam har otib suyganda quvondan qiyqirgan singlim. Uning sarg'ish ko'zchalar yumilib-yumilib ketardi.

*Kishtala enam, kishtala...
Shu bolamga sadaga,
Mehrganamning hammasi.
Oppoga tonglar otguncha,
Ertaga aytar momosi.*

Singlimning lablari yoyilganda harhar joydan oqarib chiqayotgan tishchalar ko'riniq ketar, u quvondan va qo'rquvdan enamni mahkam quchoqlab olgancha qiyqirardi.

*Kishtala enam, kishtala...
Bolag'anamdi asraydi,
Ko'pdingga ko'lday duvasi.
Qorin moylara opkelar,
Qirdana balana buvasi.*

Biz:

– Ha, Oyimgulcha, – deb erkalsak, singlim kulgu, zavq yoyilib ketgan yuzchalarini bizga burgancha qiqirardi.

*Kishtala enam, kishtala...
Jo'ng'ichqaning ichida,
Bedanalar sayraydi.
To'rt tomoni qo'rshovli,
Bolag'anam jayraydi.
Kishtala enam, kishtala...
Ha, bolag'anamdan...*

Enamning aytimlaridan singlimming ana shu yashnagan chehrasini eslash hali hamon yuragimga zavq beradi. Ehtimol, men singlimni ana shu go'zal xotiralar uchun ham hammadan ko'proq suyarmen. Olti bolali, nevarali bo'lsa ham undan xavotirlanishim, ehtimol shundandir. Singlimga bu mehrni bolaligim hayitlari, aniqrog'i enamning hayit aytimlari-yu kishtala qo'shiqlari olib kirgan bo'lsa ham ajabmas.

Guljahan MARDONOVA,
O'zbekiston jurnalistlar
uyushmasi a'zosi

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4680. Tiraji 9877.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'yozmalari taqiz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Dilafro'z Abdurajabova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi/da chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoly ko'chasi, 30-uy.

O'A yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6

Marifat

TA'SIS ETUVCHILARI:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasabasi
uyushmasi Respublika kengashi.